

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.21.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

GANIXANOV XASANXON SHAVKAT O‘G‘LI

**ARRALI JIN HAVOLI TOLA AJRATUVCHI QURILMASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va
robototexnika tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on technical sciences**

Ganixanov Xasanxon Shavkat o'g'li

Arrali jin havoli tola ajratuvchi qurilmasini takomillashtirish 3

Ганиханов Хасанхон Шавкат угли

Усовершенствование устройства воздушного съема волокна
пильного джина 23

Ganikhanov Khasankhon

Improvement of fiber air removal device of the saw gin 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 48

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.21.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

GANIXANOV XASANXON SHAVKAT O‘G‘LI

**ARRALI JIN HAVOLI TOLA AJRATUVCHI QURILMASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va
robototexnika tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2025.4PhD/T6177 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.titli.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mavlyanov Aybek Palvanbayevich
texnika fanlari falsafa doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xakimov Sherqul Shergoziyevich
texnika fanlari doktori, professor

Axmedov Xamidulla Abduxoshimovich
texnika fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 26-avgust soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 222-xona. Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17, e-mail: titlp_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot – resurs markazida tanishish mumkin (305-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 16-iyul kuni tarqatildi.
(2026-yil 16-iyul 305 raqamli reyestr bayonnomasi).



X.H. Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor



A.Z. Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor



Sh.Sh. Xakimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon bozorida tabiiy tolalarga, xususan paxta tolasiga bo'lgan talabning barqaror ortib borishi paxta mahsulotlari sifatiga nisbatan yuqori talablarni shakllantirmoqda. Paxta tolasini ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi hisoblangan Xitoy, Hindiston, Braziliya, AQSH, Pokiston kabi mamlakatlar o'z o'rnini va nufuzini saqlash uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulot iste'mol xususiyatlarini oshirish va ularning bozor konyukturasiga mosligini ta'minlash imkonini beruvchi ilg'or texnologiyalar, yuqori samarali mashina va mexanizmlardan foydalangan holda paxtani qayta ishlash sanoatini yanada rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa jahon bozorida raqobat muhitini kuchaytirib, mahsulot sifatini oshirish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu bois, paxta sanoati korxonalarini yuqori unumdorlikka ega zamonaviy texnika va innovatsion ishlanmalar bilan ta'minlash sohaning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda paxtaga dastlabki ishlov berish texnologiyasining asosiy bosqichi sifatida, paxta tolasini chigitidan ajratish (jinlash) jarayoni, texnika va texnologiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Ushbu yo'nalishda arrali jinlarning tishlaridan tolalarni ajratib olish jarayonini takomillashtirish va yuqori samaradorlikni ta'minlovchi konstruksiyalarni yaratishga qaratilgan tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Bu borada, jumladan, paxtani jinlash jarayoni samaradorligini oshirishning asoslari yaratilmoqda, ilmiy hajmdor, avtomatlashgan, shuningdek, resurstejamkor texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etishni jadallashtirish orqali mahsulot tabiiy ko'rsatkichlarini saqlab qolish va tannarxini pasaytirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz hududida paxtachilik tarmog'ini rivojlantirish, paxta tozalash korxonalarini modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash, ishlab chiqarish va paxta xomashyosini qayta ishlash rentabelligini, shuningdek, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «...to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ikki baravarga ko'paytirish, sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish, sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish»¹ urug'lik paxta chigitidan tolani ajratishda chigit va tola shikastlanishining oldini olish, urug'lik chigit dastlabki sifat ko'rsatkichlarini saqlash orqali paxta yetishtirish va uni dastlabki ishlash jarayonlari samaradorligini oshirish hamda yangi takomillashgan mashinalarni yaratish vazifalari belgilab berildi. Ushbu vazifalarni bajarishda, xususan, arrali jinlarda tolalarni arralarning tishlaridan to'liq ajralishini ta'minlash, shuningdek, jarayonning uzluksizligini ta'minlovchi, yuqori sifatli paxta tolasini olish imkonini beruvchi texnologiyani yaratish va uni ishlab chiqarishga joriy etish sanoat taraqqiyoti uchun muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil PF-2-sonli "Paxta – to'qima-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni

-chilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 28-noyabrda PQ-3008 sonli "Paxtachilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2023-yil 26-yanvardagi PQ-23-sonli "Paxta xomashyosi yetishtiruvchilar faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Texnologik mashinalarining ishchi organlarini takomillashtirish, resurslarni tejash, mashina ish unumdorligini, ishchi organlarini samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilash bo'yicha bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo'shganlar, jumladan: E.Whitney, S.Asalam, N.Soomro, D.M.Alberson, S.V.Armijo, T.Elliot, S.E.Hughs, R.N.Racoff, A.V.Stenli, R.G.Hardin, P.A.Func va boshqalar.

Arrali jin mashinasi ish unumini oshirish, resurstejamkor ishchi organlar ishlab chiqish va jinlash samaradorligini oshirish bo'yicha mamlakatimiz taniqli olimlaridan: R.G.Maxkamov, I.T.Maksudov, A.E.Lugachev, M.Tillayev, M.Agzamov, X.T.Axmedxodjayev, B.M.Mardanov, N.Z.Kamolov, A.P.Parpiyev, A.Djurayev, Sh.P.Alimuhamedov, R.Murodov, Sh.T.Ergashev, R.Sulaymonov, O.Sarimsakov, K.Sobirov, M.Abduvoxidov, D.Muhammadiyev, S.Z.Yunusov, A.Umarov va boshqalar olib borgan ilmiy tadqiqotlar, paxta tolasini chigitdan ajratish jarayoni va uskunalarini takomillashtirishning ayrim masalalari, xususan, arrali jinlarda tola ajratish jarayonini takomillashtirish, arraning diametri, ishchi kamera ratsional profili, arrali silindri optimal tezligini aniqlash kabi yo'nalishlarga qaratilgan bo'lib, ular natijasida paxtani dastlabki ishlash texnika va texnologiyasi muayyan darajada rivojlantirib, salmoqli natijalarga erishildi.

Shu bilan birga, arrali jin mashinasida arral tishlaridan tolalarni to'liq ajratib olish muammolari, havoli ajratuvchi qurilmalarda energiya sarfini kamaytirish masalalari hamda jarayonning tolaning tabiiy xususiyatlariga ta'siri yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Arrali jin havoli tola ajratuvchi qurilmasini takomillashtirish" mavzu loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Arrali jin mashinalarining ishchi organlarini tadqiq qilish hamda parametrlarini nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida takomillashtirish orqali jin mashinasining samaradorligini oshirish.

Tadqiqotning vazifalari: Qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda, dissertatsiya tadqiqotining quyidagi asosiy vazifalari belgilab olindi:

tola ajratuvchi qurilma konstruksiyalari ustida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning tahlili asosida zamonaviy qurilma va tizimlardan foydalanib, tola ajratib olish bo'yicha texnikaviy yechim ishlab chiqish;

arra tishlaridan tolalarni ajratib oluvchi havo oqimining foydali ish koeffitsientini oshirish hamda ajratib olish samaradorligini ko'tarish;

arrali jin ishchi organlarining dinamik va aerodinamik parametrlarining arra tishlaridan tolalarni ajratish jarayoniga bog'liqlik grafiklarini tahlil qilish hamda ularning ratsional qiymatlarini asoslash;

tola ajratib olish jarayoni uchun takomillashgan ishchi organ ishlab chiqish hamda tajribalar asosida ishchi organlarning asosiy konstruktiv parametrlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida arrali jinlash jarayoni hamda jin mashinasining tolani ajratib olish qurilmasi olingan.

Tadqiqotning predmeti paxta tolasini uning chigitidan ajratish metodlari va vositalari, tolaning jarayondagi harakat qonunlari, tola ajratish qurilmasining ish rejimlari va ularning tolaga hamda ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida statik va dinamik modellashtirish, to'liq omilli tajribalar, kuzatish, o'lchash, solishtirish, baholash va maqsadli elektron dasturlar vositasida optimallashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

arrali jin arra tishlaridan tolalarni samarali ajratib oluvchi, havo oqimini individual havo kanallari orqali har bir arra tishiga kerakli nuqtada yo'naltiruvchi va jarayon uchun energiya sarfini kamaytiruvchi tola ajratuvchi qurilmaning takomillashgan konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

tashqi kuchlar hamda aerodinamik ko'rsatkichlar hisobga olingan holda soplodan chiqayotgan havo oqimining ratsional qiymatlari ajralish zonasidagi tolalar harakat qonuniyatlari asosida aniqlangan;

arra tishlaridan ajratib olingan tolalar oqimini quvurdagi harakat qonuniyatlari tahlili asosida keyingi texnologik jarayonga uzatish bo'yicha konstruktiv yechim ishlab chiqilgan;

to'liq faktorli tajriba va sinovlar natijalariga asoslanib arrali jinlarda yuqori samaradorlikni ta'minlovchi tola ajratuvchi qurilma ishchi organlarining asosiy ratsional parametrlari aniqlangan va o'zaro bog'lanishlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

arrali jin havoli tola ajratuvchi qurilmasining takomillashgan konstruksiyasi ishlab chiqildi hamda nazariy tahlil qilingan;

arrali jin havoli tola ajratuvchi takomillashgan qurilma Kattaqo'rg'on paxta tozalash korxonasida ishlab chiqarishga joriy qilingan;

arrali jin arralari tishlaridan tolalarni samarali ajratib olish va jarayon uchun energiya sarfini kamaytirish imkonini beruvchi havoli tola ajratuvchi qurilmaning ratsional konstruktiv, aerodinamik va texnologik parametrlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida natijalarning ishonchliligi arrali jin jinlash jarayonining nazariy tadqiqotlari va olingan natijalarining mavjud va amal qilayotgan fundamental nazariyasiga mantiqan muvofiq kelishi,

hisobiy ishlarda standartlashtirilgan usul va vositalardan foydalanilganligi, olingan natijalarni real iqtisodiy samara bilan ishlab chiqarishga joriy qilinishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati arra tishlaridan tolalarni ajratib olish jarayoni algoritmi ishlab chiqilganligi, ajratib olish zonasidagi hamda uzatuvchi quvurdagi tolalarning harakat tenglamalari qurilganligi, kerakli nuqtada arra tishlarigan yo'naltirilgan havo oqimi tezligining tolani ajratib olish samaradorligiga ta'siri nazariy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ularning bevosita paxta tozalash sanoati ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshirilganligi, paxta tozalash korxonalari uchun yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lgan, resurstejamkor texnologiyaga asoslangan takomillashgan tolani pastdan ajratib olish qurilmasi hamda unga mos texnologik rejim ishlab chiqilganligi hamda paxta tozalash korxonasida ishlab chiqarishga qo'llanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Arrali jin arralari tishlaridan tolalarni samarali ajratuvchi qurilma yaratish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida:

takomillashgan arrali jin havoli tola ajratuvchi qurilmasi «Pahtamash» MChJ korxonasida ishlab chiqarilgan DP-90 rusumli arrali jin mashinasiga o'rnatilgan va «Kattakurgan g'alla cluster» MChJ ga qarashli «Kattaqo'rg'on paxta tozalash» korxonasida amaliyotga joriy qilingan. («O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasining 2025-yil 26-dekabrda 02/06-2984-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqarilayotgan I-nav paxta xomashyosini dastlabki ishlashda paxta tolasidagi nuqsonlar va iflos aralashmalar massaviy ulushini 0,3 % ga kamaytirish, kalta tolalar indeksini 0,6% ga qisqartirish, tolalarni arra tishlaridan ajratib olish jarayoni uchun sarflanayotgan elektr energiyasini 40% tejab qolish, hamda jin mashinasining ish unumdorligini 20% ga oshirish imkoniga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqotning natijalari 3 ta respublika va 2 ta xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ishlar e'lon qilingan, shu jumladan 6 ta ilmiy maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya qilingan ilmiy jurnallarda, jumladan 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr qilingan, O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligining 1 ta ixtiro patenti olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi rasm va jadvallar bilan birga 104 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, shuningdek, tadqiqot obyekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalar bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy

ahamiyati yoritilgan hamda amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Arrali jinlashda tola ajratish texnologiyasi bo'yicha tadqiq qilingan ishlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida arrali jin konstruksiyalarini takomillashtirish va konstruktiv xususiyatlarini hamda uning ishchi organlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarni ko'rib chiqish, shuningdek tolani arra tishlaridan ajratib olish jarayonidagi havo oqimining ajratish samaradorligiga ta'siri, paxta tolasini arra tishlaridan ajratib olish jarayonlari muammolari kabi ishlar tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Arrali jinning takomillashgan havoli tola ajratuvchi qurilmasidagi tolalar harakati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida tavsiya etilgan arrali jinning takomillashgan tolani pastdan ajratuvchi qurilmasi konstruktiv sxemalari va ishlash prinsipi, shuningdek ishchi zona va quvurdagi tolalar harakati nazariy asoslari keltirilgan. 1-rasmda arrali jinning takomillashgan tolani pastdan ajratib olish qurilmasi taqdim etilgan.

Arra tishlaridan tolani ajratib olish aylanadigan cho'tkali baraban yoki tirqichdan arra silindriga yetkazib beriladigan havo oqimi yordamida amalga oshiriladi. Havo yordamida tolani ajratib oluvchi moslamalarda faol havo oqimi tolani ajratib olish zonasida vakuum hosil qilib, arra tishlaridan tolani ajratib oladi va uni qabul qiluvchi quvurga yo'naltiradi. Havo kamerasidagi statik bosim tirqichning tashqi chetidagi dinamik bosimga deyarli teng. Havoli ajratuvchi qurilmasining samaradorligi tirqichning kengligiga, faol oqimning tezligiga, arra tishlarining ishchi oqim bilan harakat qilish vaqtiga, yo'naltiruvchi qismning uzunligi va egriligiga, chiqarish koeffitsientiga, tolani qabul qilish hamda tola tozalagichga uzatuvchi quvurlarning shakli va joylashishiga bog'liq bo'ladi.


Tadqiqotning maqsadi arrali silindrning tishlaridan tolani ajratib olish samaradorligini oshirish va jarayon uchun energiya sarfini kamaytirish orqali arrali jin mashinasining ish unumdorligini oshirishdan iborat.

Tolalarni ajratib olish qurilmasi quyidagi chizmalar bilan tasvirlangan, u yerda 1.a - rasmda qurilmaning umumiy sxemasi, 1.b - rasmda A - A kesimi, 1.c - rasmda B - B kesim keltirilgan.

Qurilma korpus 1 (arrali jin korpusi) dan iborat bo'lib, uning ichiga spiral shaklidagi havo kamerasi 2 o'rnatilgan, unda havo kanallari 3 bo'lgan taroq shaklida o'rnatilgan havo soplosi, yo'naltiruvchi silindr 4, qabul qiluvchi quvur 5 va tolani uzatish quvuri 6 dan iborat bo'lib, u jinni tola tozalagich 9 bilan bog'laydi.

Tolani uzatish quvurining 6 ichki qismi havo oqimiga parallel to'liqlar bilan to'liqsimon shaklda qilingan bo'lib, unda tola bilan aloqa yuzasining qisqarishi tufayli ishqalanish kuchi kamayadi va tolani uzatish quvurining burchak ostida o'rnatilishi tolaning qabul qiluvchi quvur 5 dan tola tozalagichga eng qisqa yo'lni bosib o'tishiga imkon beradi. Bu ortiqcha qarshilikni yo'q qiladi va quvurlardagi bosim tushishini ta'minlaydi.

Qurilma quyidagicha ishlaydi. Ventilyatordan (rasmda ko'rsatilmagan) ma'lum bir bosim ostida havo oqimi quvurlar orqali havo kamerasiga 2 yuboriladi va kameraning spiral shakli yuzasi bo'ylab silliq torayib, soplo teshiklari orqali, yo'naltiruvchi silindrning sirtlari 4 va arrali silindrning arralari 7 o'rtasidan o'tadi.




**1 - rasm. Arrali jinning takomillashgan tolani pastdan tushirib olish qurilmasi
a - agregatning umumiy ko‘rinishi; b - havo soplosi; c - tola tozalash
 mashinasiga uzatuvchi quvur**

Havo soplosining konstruksiyasiga ko‘ra arrali silindrning 8 har bir arrasi uchun kesim yuzasi 50 mm^2 ga teng, miqdori arralar soniga teng bo‘lgan miqdorda individual kanallar hosil bo‘ladi.

Bunday holda, arrali silindrning 8 arra 7 tishlari tomonidan tutilgan tolalarga ma'lum bir tezlikda ta'sir qiluvchi havo ularni qabul qiluvchi quvurga 5 yo'naltiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, har bir arra uchun alohida kanallari bo'lgan havo soplosi hajmining 40-45% ga kamayishiga olib keladi, bu esa havo tezligini sezilarli darajada oshiradi, taroq shakli havo oqimining ta'sirini to'g'ridan-to'g'ri arra tishlariga yo'naltiradi, bu esa arrali silindrning tishlaridan tolalarni ajratib olish samaradorligini oshiradi. Keyin tola uzatish quvuri 6 orqali tashiladi va tola tozalagichga 9 kiradi.

Takomillashgan konstruksiya ish joyida havo oqimining tezligini oshirishga imkon beradi va kam havo sarflaydi hamda arrali silindrning arra tishlaridan tolalarni ajratib olish samaradorligini oshiradi (2-rasm).




2-rasm. Arrali jinining mavjud (a) va takomillashgan (b) tolalarni ajratuvchi qurilmasida havo oqimining arra tishlariga yo'nalgan harakati

Konstruksiyaning mohiyati shundan iboratki, arrali jinining tolani ajratib olish qurilmasida havo kamerasi, havo soplosi, yo'naltiruvchi silindr, qabul qiluvchi patrubka va tolani chiqarish kanalidan tashkil topgan, bunda havo kamerasi spiralsimon shaklda bo'lib, uning ko'ndalang o'qi arrali silindr vertikal o'qiga nisbatan $\alpha = 27^\circ \div 30^\circ$ burchak ostida joylashgan, havo soplosi arrali silindrining har bir individual kanallarga ega, tirqish kengligi $a = 5$ mm va uzunligi $b = 10$ mm, havo kamerasining yo'naltiruvchi silindri $r = 150$ mm radiusga ega, tolani ajratib olish kanalining ichki qismi to'liqlik bilan parallel ravishda amalga oshiriladi, spiral shakldagi quvur gorizontga $\beta = 15^\circ$ burchak hosil qiladi, ikkinchi uchi esa tola tozalagichga $\gamma = 30^\circ$ burchakda ulanadi.

Shunga ko'ra, havo soplosidan chiqarilgan havo arra silindrining har bir arra bo'shlig'idan alohida-alohida puflanganligi sababli, bo'shliqning umumiy hajmi mavjud konstruksiyaga nisbatan 40-45% ga kamayadi, buning natijasida havo bosimi (tezligi) havo sarfi tushsa ham sezilarli darajada saqlanadi, shuningdek, arra tishlariga yo'naltirilgan havo oqimining ish samaradorligi oshadi. Bundan tashqari, spiral havo kamerasining egri yuzasi bilan aloqa qiladigan havo harakatga nisbatan past qarshilikka ega va tolani uzatish quvurining konstruksiyasi undagi bosimning pasayishini qoplaydi, bu esa tolani ajratib olish samaradorligini oshiradi. Konstruksiya arra silindrining arra tishlaridan tolani ajratib olish samaradorligini oshirish, tolani ajratib olish qurilmasining ish joyidagi havo oqimi tezligini oshirish, arra tishlarining intensiv aloqa zonasida o'tkazish vaqtini ko'paytirish va havo sarfini kamaytirish orqali arra jinlarning ish unumdorligini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi, bu

esa energiya harajatlarini kamaytirishga olib keladi.

Quyida keltirilgan (3-rasm)dan arrali disklarda qamrov burchagi φ bo'lgan AB yoy bo'ylab ta'sir qiluvchi kuchlar va tolalarning ajratib olish zonasidagi harakatini nazariyasini ko'rib chiqamiz, dastavval tolalarini OX o'qi bo'yicha differensial tenglamani keltiramiz.



3-rasm. Takomillashgan tolani pastdan tushirib olishdagi ta'sir qiluvchi kuchlar sxemasi

$F_{m.q.} = m \cdot \omega^2 \cdot R$ – markazdan qochma kuch;
 $k \cdot v^2$ – havo oqim kuchi;
 ω – arrali silindrning burchak tezligi;
 R – arrali disk radiusi;
 m – tolalarining massasi,
 $F_{Kor} = 2 \cdot m \cdot \omega \cdot \dot{x}$ – Koriolis kuchi.

$$m \cdot \ddot{x} = F_{kor} + k \cdot v^2 + m \cdot g \cdot \sin \alpha$$

$$m \cdot \ddot{x} - 2 \cdot m \cdot \omega \cdot \dot{x} = k \cdot v^2 + m \cdot g \cdot \sin \alpha$$

$$\ddot{x} - 2 \cdot \omega \cdot \dot{x} = \frac{k}{m} \cdot v^2 + g \sin \alpha \quad (1)$$

(1) tenglama ikkinchi tartibli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamani bir jinsli va xususi yechimlarini aniqlaymiz.

Havo oqimi ta'sirida tolalarni OX o'qi bo'yicha xarakatining umumiy yechimi quyidagicha ifodalanadi.

$$x = C_1 + C_2 \cdot e^{-2\omega t} + \frac{kv^2}{m} \cdot t^2 - \frac{5g}{2\omega^2} \cdot \cos \alpha - \frac{g}{5\omega^2} \cdot \sin \alpha \quad (2)$$

(2) ifodadan C_1 va C_2 o'zgarmas qiymatlarni aniqlashda boshlang'ich va chegaraviy shartlardan foydalanamiz. $(x)_{t=0} = 0$; $(\dot{x})_{t=0} = 0$ dan aniqlaymiz


$$\begin{cases} C_1 + C_2 - \frac{5g}{2\omega^2} = 0 \\ -2 \cdot C_2 + \frac{g}{5\omega^2} = 0 \end{cases}$$

$$C_2 = \frac{g}{10\omega^2}; C_1 = -\frac{g}{10\omega^2} + \frac{5g}{2\omega^2}; C_1 = \frac{24g}{10\omega^2}$$


Aniqlangan C_1 va C_2 qiymatlarni (2) tenglamaga qo'yamiz.

$$x = \frac{12g}{5\omega^2} + \frac{g}{10\omega^2} \cdot e^{-2\omega t} + \frac{kv^2}{m} \cdot t^2 - \frac{5g}{2\omega^2} \cdot \cos \alpha - \frac{g}{5\omega^2} \cdot \sin \alpha \quad (3)$$

(3) tenglamadan tolalarni arradan ajratib olishdagi jarayonini havo tezligiga bogʻliklik ifodasidan foydalanib Maple dasturi orqali grafiklarda tahlil qilingan (4, 5 – rasmlar). Hisoblashda quyidagi parametrlar qiymatlari keltirilgan: $g = 9,81 \text{ m/s}^2$; $\varphi = 80^\circ$; $\omega = 77 \text{ c}^{-1}$.



4-rasm. Arra tishlaridan tolalarni ajratib olishda yoʻnaltiruvchi havo oqimi tezliklarining turli xil $v_1 = 65 \text{ m/s}$; $v_2 = 70 \text{ m/s}$; $v_3 = 75 \text{ m/s}$ qiymatlarida vaqtga bogʻliqlik grafigi



5-rasm. Arra tishlaridan tolalarni ajratib olishda havo soplosining arrali silindr oʻqiga nisbatan joylashuv burchagining turli xil $\alpha_1 = 27^\circ$; $\alpha_2 = 29^\circ$; $\alpha_3 = 31^\circ$ qiymatlarida vaqtga bogʻliqlik grafigi

Yuqoridagi grafiklar tahlilidan tolalarni arra tishlaridan ajratishda yoʻnaltiruvchi havo oqimi hamda havo soplosining arrali silindr oʻqiga nisbatan joylashuv burchagi taʼsirida OX oʻqi boʻyicha harakati keltirilgan. Bunda tolalarga taʼsir qiluvchi tashqi kuchlar taʼsirida ajratilgan tolalarni tushish masofalariga qarab tolalarni arra tishlaridan toʻliq ajratish masalasi koʻrilgan, tolalarni ajratishda yoʻnaltiruvchi havo oqimi tezliklarining turli xil qiymatlarida hamda havo soplosining arrali silindr oʻqiga nisbatan joylashuv burchagining turli xil qiymatlarida tolalar harakati tahlil qilingan. Bunda yoʻnaltiruvchi havo oqimi tezligining $v = 75 \text{ m/s}$ qiymatida va havo soplosining arrali silindr oʻqiga nisbatan joylashuv burchagini $\alpha = 27^\circ$ qiymatida tolalarni arra tishlaridan ajratish va havo kanaliga uzatishda samaradorlikka erishilgan.

Tolalar oqimini arradan ajratib olishdagi kuchlar taʼsiridagi OY oʻqi boʻyicha harakat differensial tenglamasini tuzamiz.

$$m \cdot \ddot{y} = F_{m,q} + m \cdot g \cdot \cos \alpha \quad (4)$$


(4) ikkinchi tartibli bir jinsli boʻlmagan differensial tenglamani bir jinsli va xususiy yechimlarani aniqlaymiz.

$$m \cdot \ddot{y} = m \cdot \omega^2 \cdot R + m \cdot g \cdot \cos \alpha \quad (5)$$


Havo oqimida harakatlanayotgan tolalarni OY oʻqi boʻylab umumiy trayektoriya tenglamasini aniqlaymiz.

$$y = ((\omega^2 \cdot l + g \cos \alpha)/2) \cdot t^2 \quad (6)$$

(6) ifoda chiziqsiz tenglama bo'lganligi sababli ko'rilayotgan oraliqda chekli ayirmalar usulida yechilib sonli yechimlari olingan va grafiklarda tolalarni arra tishlaridan ajratishda yo'naltiruvchi havo oqimi tezligi hamda havo soplosining arrali silindr o'qiga nisbatan joylashuv burchagi ta'sirida harakati tahlili keltirilgan (6, 7 – rasmlar). Bunda tolalarga ta'sir qiluvchi tashqi kuchlar ta'sirida ajratilgan tolalarni tushish masofalariga qarab quvurga kirish masalasi ko'rilgan, tolalarni ajratishda yo'naltiruvchi havo oqimi tezliklarining turli xil qiymatlarida hamda havo soplosining arrali silindr o'qiga nisbatan joylashuv burchagining turli xil qiymatlarida tolalar harakati tahlil qilingan.




6-rasm. Arra tishlaridan tolalarni ajratib olishda OY o'qi bo'yicha havo soplosining arrali silindr o'qiga nisbatan joylashuv burchagining turli xil $\alpha_1 = 27^\circ$; $\alpha_2 = 29^\circ$; $\alpha_3 = 31^\circ$ qiymatlarida vaqtga bog'liq grafifi



7-rasm. Arra tishlaridan tolalarni ajratib olishda OY o'qi bo'yicha yo'naltiruvchi havo oqimi tezliklarining turli xil $v_1 = 65 \text{ m/s}$; $v_2 = 70 \text{ m/s}$; $v_3 = 75 \text{ m/s}$ qiymatlarida vaqtga bog'liq grafifi

Arra tishlaridan ajratilgan tolalarni OY o'qi bo'yicha olingan harakat trayektoriyasiga ko'ra quvurga uzatish mobaynida yo'naltiruvchi havo oqimi tezligining $v = 75 \text{ m/s}$ qiymatida hamda havo soplosining arrali silindr o'qiga nisbatan joylashuv burchagi $\alpha = 27^\circ$ qiymatida nazariy jihatdan vaqt bo'yicha jarayon to'g'ri kechishi aniqlangan.



8-rasm. Takomillashgan quvurdagi tolalar oqimining harakat sxemasi

Taklif qilinayotgan qurilmada tolalarni arra tishlaridan havo yordamida ajratib olishda havo sarfi kamayganligi, tolalarni keying texnologik jarayonga uzatishda qiyinchilik tug'dirmasligi uchun maxsus quvur o'rnatilgan. Tolalarning quvur

devorlariga urilish natijasida hosil bo'ladigan ishqalanish kuchini kamaytirish maqsadida quvurning ichi havo oqimiga parallel to'liqsimon shaklga ega. Quyida quvurdagi tola harakati nazariy tahlil qilingan. Qurilmadan o'tuvchi tola oqimining harakati 8-rasmda keltirilgan.

Tolalar oqimini havo yordamida uzatishda hosil bo'ladigan tashqi kuchlar natijasida OY o'qi bo'yicha harakat differensial tenglamasini tuzamiz.

$$m \cdot \ddot{y} = -k_1 \cdot v_y - c \cdot y \quad (7)$$

$v_y = \dot{y}$ ga tengligidan

$$m \cdot \ddot{y} + k_1 \cdot \dot{y} + c \cdot y = 0 \quad (8)$$

hosil qilamiz.


Umumiy yechimini quyidagicha ifodalaymiz

$$y = e^{-nt} (c_1 \cos \sqrt{k^2 - n^2} \cdot t + c_2 \sin \sqrt{k^2 - n^2} \cdot t) \quad (9)$$

c_1 va c_2 o'zgarmas qiymatlarni tenglamaga qo'yamiz va (9) tenglamani quyidagi ko'rinishda hosil qilamiz

$$y = Ae^{nt} \sin(\sqrt{k^2 - n^2} + \alpha) \quad (10)$$

Yuqoridagi tenglamada taklif etilayotgan qurilmada tolalar oqimining havo yordamida OY o'qi bo'ylab harakati jarayonida quvur devorlarining ta'siri tahlil qilindi. Tolalarni to'g'ri yo'naltirish, quvur devorlariga urilganda yuzaga keladigan zarba kuchlarini va ishqalanish kuchlarini kamaytirish orqali tolalarning keyingi texnologik jarayonga tez va oson uzatilish masalasi tahlil qilindi (9-rasm).



9-rasm. Tolalar oqimining yo'naltiruvchi havo ta'sirida quvurdagi harakatining havo tezliklarining turli xil $v_1 = 8 \text{ m/s}$; $v_2 = 8,5 \text{ m/s}$; $v_3 = 9 \text{ m/s}$ qiymatlarida vaqtga bog'liq grafigi

Tolalar oqimini havo oqimi yordamida uzatishda OX o'qi bo'ylab harakat differensial tenglamasini tuzamiz

$$\begin{aligned} m \cdot \ddot{x} &= -k \cdot v_x + L \cdot \sin pt \\ m \cdot \ddot{x} + k \cdot v_x &= L \cdot \sin pt \end{aligned} \quad (11)$$

(11) tenglama ikkinchi tartibli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamani x_1 - umumiy yechimi bilan x_2 - xususiy yechimlarni yig'indisidan iborat

$$x = x_1 + x_2$$

Umumiy yechimni quyidagicha ko‘rinishda izlaymiz

$$x_1 = c_1 e^{\lambda_1 t} + c_2 e^{\lambda_2 t}$$

Xususiy yechimini esa quyidagi ko‘rinishda izlaymiz

$$x_2 = M \sin pt + N \cos pt \quad (12)$$

M va N ning qiymatlarini (12) tenglamaga qo‘yamiz

$$x_2 = \frac{k^2}{m^2 p^2 + k^2} \sin pt + \frac{kL}{p(m^2 p^2 + k^2)} \cos pt$$

umumiy yechim

$$x = c_1 e^{\lambda_1 t} + c_2 e^{\lambda_2 t} + \frac{k^2}{m^2 p^2 + k^2} \sin pt + \frac{kL}{p(m^2 p^2 + k^2)} \cos pt \quad (13)$$

(13) tenglamadagi c_1 va c_2 o‘zgaras qiymatlarini boshlang‘ich koordinatasidan foydalanib topamiz.

$t = 0$; $x = 0$; $\dot{x} = 0$ bundan


$$c_2 = \frac{k^2 p m}{k(m^2 p^2 + k^2)} = \frac{k p m}{m^2 p^2 + k^2}$$

$$c_1 = \frac{k d}{p(m^2 p^2 + k^2)} - \frac{k p m}{m^2 p^2 + k^2} = \frac{k(L - p^2 m)}{p(m^2 p^2 + k^2)}$$

Aniqlangan c_1 va c_2 qiymatlarini (13) tenglamaga qo‘yamiz.

$$x = \frac{k(L - p^2 m)}{p(m^2 p^2 + k^2)} + \frac{k p m}{m^2 p^2 + k^2} e^{-\frac{k}{m} t} + \frac{k^2}{m^2 p^2 + k^2} \sin pt + \frac{kL}{p(m^2 p^2 + k^2)} \cos pt \quad (14)$$

(14) tenglama tolalar oqimini quvurdagi OX o‘qi bo‘ylab harakatini ifodalaydi. Bu tenglamani Maple dasturidan foydalanib grafiklarda tahlil qilamiz (10-rasm).



10-rasm. Tolalar oqimining yo‘naltiruvchi havo ta’sirida quvurdagi harakatining havo tezliklarining turli xil $v_1 = 8 \text{ m/s}$; $v_2 = 8,5 \text{ m/s}$; $v_3 = 9 \text{ m/s}$ qiymatlarida vaqtga bog‘liq grafigi

Tolalar oqimining quvur bo‘ylab harakatiga yo‘naltiruvchi havo oqimi parametrlarining ta’siri bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, havo tezligining oshishi tolalar tezlanishining ortishiga bevosita olib keladi va oqimning vaqt bo‘yicha barqarorlashuv jarayonini tezlashtiradi. OX o‘qi bo‘yicha turli havo tezliklarida ($v_1 = 8 \text{ m/s}$; $v_2 = 8,5 \text{ m/s}$; $v_3 = 9 \text{ m/s}$) olingan natijalar havoning boshqaruvchanligi hamda oqimning strukturaviy o‘zgarishlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Olingan natijalar havo oqimidan optimal foydalanish, hamda

quvurning jin va tolatozalagich orasida optimal joylashuvi arrali jin arra tishlaridan tolalarni ajratib olib keying jarayonga uzatilish samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjudligini isbotladi.

Dissertatsiyaning **“Arrali jin mashinasida tolani pastdan ajratib olish qurilmasini takomillashtirish bo‘yicha tajribaviy tadqiqotlar”** deb nomlangan uchinchi bobida tajribaviy tadqiqotlarning maqsadi va vazifalari, takomillashtirilgan qurilmani tajribadan o‘tkazishdagi tadqiqot masalalari, shuningdek, tavsiya etilgan ishchi organ konstruksiyasidagi mashinaning ratsional parametrlarini aniqlash ko‘rib chiqilgan. Arrali jinlar arralari tishlaridan tolani havo yordamida samarali ajratib olish qurilmasi konstruksiyasi taklif etildi.

Ratsional parametrlarni aniqlash uchun to‘liq omilli tajriba o‘tkazildi. Jinning unumdorligi hamda chiqarilayotgan mahsulot sifati asosan asosiy ishchi organlarning ishlashiga va texnologik rejimlarga bog‘liq. Tolani arrali silindrining tishlaridan ajratib olish jarayoni ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning optimal qiymatlarini aniqlash uchun zamonaviy matematik tajriba rejalashtirish usullaridan foydalanib tadqiqotlar o‘tkazish zarur. Natijalarga statistik ishlov berish jarayonida omillar va chiqish parametrlarini muqobillash uchun tajribani matematik rejalashtirish usullari qo‘llaniladi. Ularga to‘liq omilli tajriba, kasrli omilli tajriba, tasodifiy muvozanatli tajriba, simpleks katakli tajriba va hokazo usullar kiradi. Biz tadqiqotlarimizda to‘liq omilli tajribadan foydalandik. Tolani ajratib olish jarayonining parametrlarini tajribaviy tadqiq qilish va optimallashtirish uchun havo oqimining soplodan chiqish tezligi, yo‘naltiruvchi silindr radiusi, har bir soplone yoriq kengligi kabi omillar tanlab olindi:

1-jadval

Tajriba omillarining o‘zgaruvchanlik darajasi

№	Omillarning nomlanishi	O‘lchov birligi	Belgilanishi	Omillar qiymati			O‘zgaruvchanlik darajasi
				-1	0	+1	
1	Havo oqimining soplodan chiqish tezligi, v	m/sek	X_1	65	70	75	5
2	Yo‘naltiruvchi silindr radiusi, r	mm	X_2	70	110	150	40
3	Individual soplone tirqish uzunligi, b	mm	X_3	8	10	12	2

Shunday qilib, mezonlar bo‘yicha hisob-kitob qilinib haqiqiy o‘zgaruvchilardagi quyidagi regressiya tenglamasi olindi:

$$y = -1.4445 + 0.0226v + 0.00275r + 0.055b \quad (15)$$

EHMda sonli hisob-kitoblar o‘tkazilgandan so‘ng asosiy omillarning turli qiymatlarida regressiya tenglamasi (15) bo‘yicha egri chiziqlar (11-rasm) qurildi.

11.a - rasmda arrali jinning unumdorligining soplodan havo oqimining aktiv tezligi bilan bog‘liqligi keltirilgan bo‘lib, unda uchta egri chiziq tasvirlangan.

Birinchisi - omillar x_2 va x_3 ning minimal qiymatlariga, ikkinchisi - oraliq qiymatlarga, uchinchisi esa - maksimal qiymatlarga mos keladi.

